



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



## SURXONDARYO VILOYATI ZIYORAT TURIZMIDA TRANSPORT VA MEHMONXONA INFRATUZILMASI

**Xamidov Abdulbosit Orifjon o'g'li**

Termiz davlat universiteti Turizm (ziyorat  
turizmi) yo'nalishi 2-kurs magistranti

E-mail: [abdulbosithamidov8@gmail.com](mailto:abdulbosithamidov8@gmail.com)

Telfon raqam: 99 336 66 69

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15378858>

**Annotatsiya.** Ushbu tezis Surxondaryo viloyatining ziyorat turizmida transport va mehmonxona infratuzilasiga bag'ishlanadi. Transport infratuzilmasi har qanday turizm tizimining asosiy qismi hisoblanadi. Sayyohlar manzilgohga yetib borish va u yerda harakatlanishi uchun samarali transport tizimiga muhtoj. Mehmonxona infratuzilmasi ham turizmning ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbekistonda turli darajadagi mehmonxonalar mavjud bo'lib, ularning qatoriga mehmonxonalar, motellar, yotoqxonalar, xostellar va turar joylar kiradi.

**Kalit so'zlar:** ziyorat turizmi, infratuzilma, transport, temiryo'l, tarmoq, mehmonxona.

**Аннотация.** Данная диссертация посвящена транспортной и гостиничной инфраструктуре в паломническом туризме Сурхандарьинской области. Транспортная инфраструктура является ключевой частью любой туристической системы. Туристам нужна эффективная транспортная система, чтобы добраться до места назначения и обратно. Гостиничная инфраструктура также является неотъемлемой частью туризма. В Узбекистане имеются различные уровни размещения, включая гостиницы, мотели, гостевые дома, хостелы и квартиры.

**Ключевые слова:** паломнический туризм, инфраструктура, транспорт, железная дорога, сеть, гостиница.

**Annotation.** This thesis is devoted to the transport and hotel infrastructure in the pilgrimage tourism of Surkhondaryo region. Transport infrastructure is a key part of any tourism system. Tourists need an effective transport system to reach their destination and move around. Hotel infrastructure is also an integral part of tourism. There are hotels of various levels in Uzbekistan, including hotels, motels, hostels, hostels and residential areas.

**Key words:** pilgrimage tourism, infrastructure, transport, railway, network, hotel.

### KIRISH

**Avtomobil yo'llari.** Turizm sohasini tashkil etuvchi infratuzilmaning asosi bu transport infratuzilmasidir. Transport infratuzilmasining yetakchi tarmoqlaridan biri bu avtomobil tarmoqlari va avtomobil yo'llari hisoblanadi. O'zbekistonda turizm sohasida yetakchi va sayohlar birinchi keladigan manzil bu shubhasiz Toshkent shahridir. Demak avtomobil tarmog'i bo'yicha har qanday O'zbekistonning shahri Toshkent shahri bilan har tomonlama bog'lanishi kerak. Termiz shahrini Toshkent shahri bilan bog'laydigan **M-39 "Almati-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz" avtomagistral yo'li** to'liq ta'mirdan chiqarilgan. Mana shu avtomagistral yo'lining doim e'tibor va nazorat ostida bo'lishi Surxondaryo viloyati turizmiga salmoqli hissa qo'shadi.



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



Surxondaryo viloyatidagi qattiq qoplamali avtomobil yo'llarning uzunligi 2,7 ming km. Avtomobilda mamlakatlararo yuk tashish xizmati korxonasi yuklarni qo'shni Afg'onistonga yetkazib bermoqda. Surxondaryo viloyatining yirik shaharlari (Termiz va Denov)dan bir qancha xorijiy mamlakatlar va O'zbekistonning ichki tumanlariga avtomobil transporti qatnaydi. **Termiz-Qarshi, Termiz-Hayraton(Afg'oniston), Termiz-Dushanbe, Termiz-Toshkent, Denov-Qarshi, Denov-Shahrisabz, Denov-G'uzor, Denov-Urganch, Denov-Samarqand** yo'nalishlari shular jumlasidan.

Bundan tashqari viloyatining ichki yo'llariga ham oxirgi yillarda e'tibor ortgan. Viloyat hududi katta bo'lganligi uchun, uning janubiy hududlarini shimoliy hududlar bilan bog'laydigan **Termiz-Qumqurg'on-Denov-Sariosiyo** yo'lining holati biroz og'ir axvolda, zero ushbu yo'l shimoliy hududlardagi asosiy ziyorat turizm obyektlarini (So'fi Oллоhyor, Shayx Valiy Attor, Denov madrasasi va h.k.) janubiy hududlardan kelgan ziyoratchilar bilan bog'laydi. Zero tashrif buyuruvchi xoh ichki, xoh tashqi sayyoh bo'lsin, agar u avtomobil orqali sayohatini tashkil etmoqchi bo'lsa unga birinchi zaruriy narsa bu avtomobil yo'lining holatidir. Bundan tashqari avtomobil uloviga ega bo'lmagan va boshqa transportlardan ko'ra avtobusni xush ko'radiganlar uchun **Toshkent-Termiz-Toshkent** yo'nalishi bo'ylab kunlik avtobus qatnovlari yo'lga qo'yilgan. Bu ham turizm xosatan ziyorat turizm rivojiga salmoqli hissa qo'shadi.

**Temiryo'l transporti.** Viloyatda temiryo'l transportining salmogi katta. Surxondaryoda dastlabki temiryo'l 1915-yilda **Kogon-Termiz** yo'nalishida qurilgan. Bu viloyatni boshqa hududlar bilan bog'laydigan dastlabki muhim yo'l bo'lgan. 1925-yilda 248 kmli Termiz-Dushanbe temiryo'lini qurishga kirishildi. Bu yo'lining qurilishi Termizni O'rta Osiyoning yirik shaharlari, Toshkent va Dushanbe bilan bog'ladi. 1971-yilga kelib Surxondaryo viloyatini Tojikistonning janubiy tumanlari bilan bog'lovchi **Termiz-Qo'rg'on-tepa-Yavan** temiryo'lini qurishga kirishildi. **G'uzor-Boysun- Qumqo'rg'on** temir yo'lining qurilishi yakunlangan. Amudaryo ustidan Hayraton temir yo' ko'prigi qurilgan. Viloyat hududidan Moskva-Dushanba, Ashxobod-Dushanba temir yo'llari o'tgan. **Termiz-Toshkent, Termiz-Amu-Zang, Termiz-Sariosiyo** shaharcha. Viloyatdagi Temir yo'llarning uzunligi 300 km. Hozirgi kunda kunlik **Termiz-Toshkent-Termiz** temiryo'l reyslari va **Termiz-Andijon-Termiz** reyslari yo'lga qo'yilgan.

**Havo yo'llari.** Termiz aeroportidan **Toshkent, Moskva, Ashxobod, Olmaota, Samarqand, Namangan, Buxoro, Andijon** va boshqa yo'nalishlarda yo'lovchilar tashuvchi samolyotlar qatnovi yo'lga qo'yilgan.

## 2. Mehmonxona infratuzilmasi.





# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



Quyidagi jadvalda Surxondaryo viloyati mehmonxonalarining yillar va hududlararo taqsimoti berilgan.

## 2.2 2-jadval

*Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari (obyektlar) soni, birlik<sup>1</sup>.*

<i>Yillar</i>	<i>2019</i>	<i>2020</i>	<i>2021</i>	<i>2022</i>	<i>2023</i>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>26</b>	<b>37</b>	<b>27</b>	<b>64</b>	<b>66</b>
Termiz shahri	6	16	4	21	26
Oltinsoy tumani	1	1	2	3	2
Angor tumani					
Boysun tumani	5	5	11	15	15
Bandixon tumani					
Muzrobod tumani					
Denov tumani	2	2	3	6	5
Jarqo'rg'on tumani	2	2			
Qumqo'rg'on tumani	1	1			
Qiziriq tumani					
Sariosiyo tumani	3	3	2	6	6
Termiz tumani	3	3	2	4	4
Uzun tumani		1		2	2
Sherobod tumani			1	2	3
Sho'rchi tumani	3	3	2	5	3

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Surxondaryo viloyatining turizm infratuzilmasining asosiy bo'g'imi hisoblangan mehmonxona tarmog'i 2021-yildan keyin jadallik bilan rivojlandi. Lekin ba'zi tumanlar va tuman markazlarida birorta ham mehmonxona yo'q. Bu esa rivojlanayotgan turizm uchun resurs yetishmasligini keltirib chiqaradi.

<sup>1</sup> [www.surxonstat.uz](http://www.surxonstat.uz)



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



2017-yildan boshlab viloyatda sayyohlik infratuzilmasi ob'ektlari ko'paydi. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2018-2022-yillarda mehmonxonalar umumiy soni 14 taga ko'payib, 52 tani, xonalar soni 1216 tani, umumiy sig'imi 2,1 ming o'rinni tashkil qilgan. Mehmonxonalar tomonidan taqdim etilgan xonalar soni 3 taga oshdi.

2019 yilga nisbatan %. Oxirgi ikki yil ichida yangi mehmonxonalar qurildi: "RICH", "AFRUZ", "OTASH", "ROYAL PALACE HOTEL". "INTURIST", "SHARQ", "ULUGBEK", "HOTEL" mehmonxonalarida rekonstruksiya va rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi.

"SURHON", "Alpomish" sport-ko'ngilochar majmuasi Sovet davrida qurilgan. Ammo bu ijobiy o'zgarishlarga qaramay, aksariyat mehmonxonalarda toifalar mavjud emas. 2017-yilgacha viloyatda "3" yulduzli toifani berish uchun davlat sertifikatiga ega bo'lgan bitta mehmonxona – bu "MERIDIAN" mehmonxonasi va "2" yulduzli davlat sertifikatiga ega ikkita mehmonxona – bular "SURXON- HOTEL" va "ASSON-TERMEZ". Hozirda uchta mehmonxona mavjud, uch yulduzli mehmonxonalar maqomiga ega - bu mehmonxonalar "MERIDIAN", "KARAVAN-OTEL" va "TERMEZ PLAZA".

## **XULOSA**

Xulosa qilinishicha, viloyatda "4" va "5" yulduzli maqomga ega mehmonxona majmualarining yo'qligi va "3" yulduzli mehmonxonalar sonining kamligi bizga sifatli, rang-barang xizmat ko'rsatish imkonini bermaydi.

Xulosa o'rnida yana bir muhim narsalardan biri shu o'rinda aytib o'tilishi kerak. Surxondaryo viloyatida ziyorat turizmiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan "Halol xizmat" turining mavjud emasligi, sohada bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda. "Halol oshxona", "Halol mehmonxona" va "Halol xizmat" turlarining yo'qligi, bugungi kunda katta auditoriya hisoblangan musulmon ziyoratchilarni yurtimiz ziyorat turizmiga jalb qilish qiyin kechmoqda.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. I. S. Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.SH.Safarov, G.R.Tursunova "Turizm asoslari" Toshkent 2014.
2. Q.T.To'rayev "O'zbekistonda diniy turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-geografik asoslari" Samarqand– 2022.
3. Bozorov. N., "Ziyorat turizm tarixi va uning turizm sohasida tutgan o'rni." Academic Research in Education Sciences 2022.
4. Boborahimov Sh. Bozorov N. "Surxon vohasi ziyorat turizmi salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari" Toshkent, 2023.